



UDK: 177:378:37.01(575.1)

Hamida BAGIBEKOVA,
OXU universiteti Pedagogika yo'nalishi 2-kurs magistranti
Email: bogibekovahamida@gmail.com

O'zMU dots.v.b, p.f.n N.Alavutdinova taqrizi asosida

BADIIY ASAR TAHLILI ORQALI O'QUVCHILARDA MA'NAVIIY-AXLOQIIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy asar tahlilining o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Badiiy adabiyotning estetik, axloqiy, tarbiyaviy funksiyalari, shuningdek, o'qitish jarayonida badiiy matnni tahlil qilishning pedagogik va metodik mexanizmlari yoritiladi. Maqolada shaxsning ma'naviy kamolotiga olib boruvchi badiiy idrok, empatiya va axloqiy refleksiya jarayonlari o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq holda ilmiy asosda tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy adabiyot, tahlil, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik yondashuv, metodika, o'quvchi shaxsini shakllantirish.

ПЕДАГОГИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация

В статье анализируется роль и значение анализа художественного произведения в формировании духовно-нравственных качеств учащихся. Рассматриваются эстетические, нравственные и воспитательные функции художественной литературы, а также педагогические и методические механизмы анализа художественного текста в процессе обучения. Исследуются процессы художественного восприятия, эмпатии и моральной рефлексии, способствующие духовному развитию личности.

Ключевые слова: Художественная литература, анализ, духовно-нравственное воспитание, педагогический подход, методика, формирование личности учащегося.

PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF FORMING SPIRITUAL AND MORAL VIRTUES IN STUDENTS THROUGH ANALYSIS OF ARTISTIC WORKS

Annotation

This article analyzes the role and significance of literary analysis in the development of students' moral and ethical values. It explores the aesthetic, moral, and educational functions of fiction, as well as the pedagogical and methodological mechanisms for analyzing literary texts in the teaching process. The study highlights the interrelation between literary perception, empathy, and moral reflection as key components of a learner's spiritual growth.

Key words: Fiction, analysis, moral and ethical education, pedagogical approach, methodology, personality development.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida badiiy adabiyot nafaqat til o'rganish yoki estetik zavq manbai sifatida, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy dunyosini boyituvchi, uni ijtimoiy jihatdan yetuk inson sifatida shakllantiruvchi vosita sifatida qaraladi. Shu jihatdan badiiy asar tahlili jarayoni – o'quvchi tafakkurini faollashtirish, badiiy idrokni chuqurlashtirish va axloqiy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirishning muhim shaklidir.

Badiiy asar – inson ruhiyatining, jamiyat axloqiy tajribasining, madaniy merosning eng faol aksidir. Unda nafaqat hayotiy voqealar, balki ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, insoniy fazilatlar badiiy timsollar orqali ifodalanadi. Shu sababli, badiiy adabiyot vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya berish o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishda markaziy o'rinni egallaydi.

Mazkur maqolada badiiy asar tahlili orqali o'quvchilarda axloqiy ong, estetik did va ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishning pedagogik va metodik mexanizmlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor adabiy tahlilning tarbiyaviy kuchini ochib berishga, shuningdek, ta'lim amaliyotida uni samarali qo'llash yo'llarini aniqlashga qaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nazariy asoslar jihatidan badiiy asarning tarbiyaviy mohiyatini tushuntiruvchi

bir necha konsepsiyalar mavjud. Avvalo, estetik tarbiya nazariyasi (G.V.Plehanov, L.S.Vygotskiy, M.Gorkiy) badiiy asar orqali insonda go'zallikni anglash, estetik baholash, idealga intilish kabi sifatlar shakllanishini asoslaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, badiiy asar estetik obrazlar orqali axloqiy ongni shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi (I.Kant, J.J.Russo, A.S.Makarenko, V.A. Sukhomlinskiy) esa badiiy adabiyot orqali inson ongida axloqiy idealni shakllantirish, shaxsni ezigulikka, insonparvarlikka, vijdon, adolat va oriyat kabi qadriyatlarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan, badiiy adabiyot shaxsning axloqiy komillikka intilishini rag'batlantiradi.

L.S.Vygotskiy badiiy asarni "inson ichki dunyosining aks-sadosi" sifatida baholaydi. Uningcha, adabiyot o'quvchining psixologik holatini o'zgartiruvchi, ichki kechinmalarini uyg'otuvchi kuchga ega. Bu jihatdan badiiy asar orqali insonda empatiya – boshqalarning holatini his etish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa ma'naviy-axloqiy shakllanishning asosiy omillaridan biridir [2]. Har bir badiiy asar o'z zamonining ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Shu sababli u madaniy kod sifatida jamiyatning axloqiy tajribasini keyingi avlodga yetkazadi. Masalan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Oybek,

Said Ahmad, Erkin Vohidov kabi ijodkorlarning asarlarida insonparvarlik, mehnatsevarlik, sadoqat, adolat kabi fazilatlar badiiy obrazlar orqali ifoda etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik nuqtayi nazardan, badiiy asar o'quvchida ichki refleksiya, ya'ni o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchi asar voqealarini o'qir ekan, qahramonning xatti-harakatlarini baholaydi, o'zini u bilan qiyoslaydi. Shu tariqa unda axloqiy identifikatsiya jarayoni yuz beradi. Bu jarayon o'quvchining o'zini tanishi, xatti-harakatlarini axloqiy me'yorlar bilan muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Bugungi zamonaviy ta'lim paradigmasida badiiy adabiyot integrativ tarbiyaviy resurs sifatida qaralmoqda. Badiiy matn – bu shaxsni shakllantiruvchi psixologik makon bo'lib, uning tahlili ta'lim, psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog'lanadi. Shunday qilib, badiiy adabiyot o'quvchini tafakkur, his, qadriyat va faoliyat jihatidan rivojlantiruvchi kompleks vosita sifatida xizmat qiladi.

Inson shaxsini shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Chunki u inson ruhiyatini tarbiyalaydi, hayotiy qadriyatlarni anglashga undaydi, ijtimoiy tuyg'ularni uyg'otadi. Adabiyotning estetik mohiyati bilan bir qatorda, uning axloqiy-tarbiyaviy funksiyasi ham mavjud bo'lib, bu jihat pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbek pedagogikasida ham bu yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. A. Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida: “Adabiyot — axloq ko'zgusi, millat tarbiyasining eng kuchli vositasidir”, — degan fikrni bildirgan. Bu fikr badiiy adabiyotning nafaqat bilish, balki tarbiyaviy manba sifatidagi mohiyatini ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Badiiy tahlil jarayoni o'quvchining individual tafakkurini faollashtirish, ularni matndagi axloqiy va estetik qadriyatlarga yaqinlashtirishni ta'minlaydi. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. Emotsional tayyorgarlik bosqichi – o'quvchida badiiy matnga nisbatan hissiy qiziqish uyg'otish, asar muallifi, davri, g'oyaviy yo'nalishi haqida motivatsion kirish so'zi berish.

2. Analitik tahlil bosqichi – matndan axloqiy va ma'naviy mazmunga ega vaziyatlarni ajratish, personajlarning ruhiy dunyosini tahlil qilish, o'quvchining shaxsiy fikrini shakllantirish.

3. Reflektiv bosqich – o'quvchi asardan olgan g'oyaviy saboqlarini o'z hayoti bilan bog'laydi, axloqiy xulosa chiqaradi.

Bu bosqichlar tizimli yondashuv asosida olib borilganda, o'quvchilarda axloqiy qarash, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat shakllanadi. Shuningdek, interfaol metodlardan (muammoli savol, “fikrlar zanjiri”, “badiiy bahs”, “ijodiy insho”) foydalanish o'quvchini faol o'rganishga undaydi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida o'quv jarayonining markazida o'quvchi shaxsini, uning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi turadi. Shu nuqtayi nazardan, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonining asosiy metodologik tamoyiliga aylanmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat bilimlarni egallashni, balki o'quvchining axloqiy, estetik va ijtimoiy qaror qabul qilish salohiyatini shakllantirishni maqsad qiladi [1].

Badiiy asar tahlilida bu yondashuv o'quvchini tayyor ma'lumotni yod olishdan ko'ra, asar mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va personajlar faoliyatini shaxsiy hayotiy tajriba bilan bog'lashga undaydi. Shu asosda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Dialogik tahlil metodi. Bu metod o'quvchini faol muloqot jarayoniga jalb etadi. Asar personajlari o'rtasidagi

dialoglar, ularning qarama-qarshi pozitsiyalari orqali o'quvchilar axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy mas'uliyat masalalarini o'zaro bahs orqali o'rganadilar. Dialogik yondashuvda o'quvchi o'z fikrini asoslash, boshqa nuqtayi nazarni tahlil qilish va baholashni o'rganadi [2]. Bu yondashuv M. Baxtin tomonidan ilgari surilgan “dialogik tafakkur” nazariyasi bilan uyg'unlashadi, ya'ni har bir badiiy obraz boshqa bir obraz bilan muloqotda ochiladi [3].

2. Assotsiativ yondashuv. Bu metod o'quvchining psixologik tafakkurini faollashtiradi. Asardagi voqealar, personajlar yoki badiiy timsollarni hayotiy holatlar bilan bog'lash orqali assotsiativ tafakkur shakllanadi. Natijada o'quvchi badiiy matndan chiqib, uni real hayotdagi vaziyatlar bilan qiyoslay oladi. Bu esa o'quvchining axloqiy refleksiyasini kuchaytiradi [4]. Masalan, Erkin A'zamning “Kechikkan hayot” asarida insoniy mas'uliyat, tanlov va pushaymonlik mavzulari orqali o'quvchi o'z hayotiy tajribasini qayta ko'rib chiqishga undaladi.

3. Empatik tahlil. Bu metod shaxsiy kechinma va his-tuyg'ular orqali idrok etishni nazarda tutadi. O'quvchi personajlarning ruhiy holatini “ichdan his qilish” orqali ularning qarorlarini, xatti-harakatlarini tushunishga harakat qiladi. Bu jarayon emotsional-intellektual rivojlanishni ta'minlaydi [5]. Empatik tahlil o'quvchida bag'rikenglik, kechirimlilik, hamdardlik kabi axloqiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

4. Integrativ tahlil. Integrativ yondashuvda asar bir vaqtning o'zida adabiy, psixologik va tarbiyaviy jihatdan yoritiladi. Bu o'quvchilarda badiiy idrokni kompleks tarzda rivojlantiradi. Masalan, adabiy tahlilda obraz tahlili bilan bir qatorda, psixologik motivatsiya, ijtimoiy kontekst va axloqiy baholash birgalikda amalga oshiriladi [6]. Shu tarzda o'qituvchi o'quvchini ko'p qirrali idrokgga tayyorlaydi, ya'ni o'quvchi matnga estetik, axloqiy va ijtimoiy mezonlardan kelib chiqib yondashadi.

O'qituvchining metodik mahorati bu jarayonda hal qiluvchi omil bo'lib, u asarni nafaqat mazmunan, balki pedagogik maqsad bilan tahlil qilgandagina o'quvchida chin ma'nodagi ma'naviy-axloqiy shakllanish yuz beradi [7].

Badiiy idrok — bu insonning estetik va axloqiy tafakkurini uyg'otuvchi murakkab jarayon bo'lib, u o'quvchi shaxsining ichki dunyosini, hayotiy qadriyatlarini va ijtimoiy sezgirlikni shakllantiradi [8]. O'quvchi badiiy asar orqali nafaqat so'z san'atini, balki insoniylik mohiyatini anglaydi.

Shaxsning ma'naviy dunyosi, o'zini va boshqalarni anglash, bag'rikenglik, adolat, sadoqat va mas'uliyat tuyg'ulari aynan badiiy tajriba asosida shakllanadi. Chunki badiiy matn inson ongida empatiya va refleksiya mexanizmlarini ishga soladi [9].

Masalan, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asarida Otabek obrazi orqali sadoqat, fidoyilik, vijdon va muhabbat kabi axloqiy kategoriyalar o'quvchiga estetik zavq bilan singdiriladi. Qodiriy o'z qahramonlari orqali shaxs va jamiyat, muhabbat va burch, axloq va ijtimoiy adolat o'rtasidagi ziddiyatlarni yoritib, o'quvchini axloqiy tanlov qilishga undaydi [10].

Erkin A'zam asarlarida esa ruhiy kechinma, insoniy iztirob va ijtimoiy mas'uliyat motivlari asosiy o'rinni egallaydi. “Yoz yomg'iri” yoki “Kechikkan hayot” asarlaridagi qahramonlar o'zining ichki monologi, vijdoniy azobi va tanlovi orqali o'quvchida axloqiy refleksiyani uyg'otadi. Bu jarayon shaxsda hayotiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish, o'zini baholash va o'zini anglash salohiyatini rivojlantiradi [11].

Shunday qilib, badiiy idrok va ma'naviy tarbiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning birligi o'quvchining komil inson sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Adabiy ta'lim jarayonida badiiy matnni shunchaki estetik ob'ekt sifatida emas, balki

axloqiy-psixologik laboratoriya sifatida o'rganish o'quvchida ongli, mas'uliyatli va mustaqil fikrli shaxsni tarbiyalaydi [12].

Xulosa va takliflar. Badiiy asar tahlili — bu nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy jarayonning ham markaziy bo'g'inidir. U o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axloqiy qadriyatlarga ongli munosabat, shaxsiy mas'uliyat va empatiya ko'nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogik jihatdan qaraganda, badiiy tahlil jarayoni axloqiy refleksiya mexanizmini ishga soladi. Shu bois,

o'qituvchilar badiiy matn tahlilida metodik maqsadni aniq belgilashi, o'quvchi shaxsini ma'naviy jihatdan boyituvchi faol uslublarni qo'llashi zarur.

Metodik tajriba shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyot orqali axloqiy tarbiya berish o'quvchilarda nafaqat adabiy bilimni, balki ijtimoiy fazilatlarini ham shakllantiradi. Shu yo'sinda badiiy asar tahlili shaxs kamolotining muhim omili sifatida baholanishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Hasanov. B. Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zMU nashriyoti. 2020.
2. Vygotskiy. L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika. 1984.
3. Baxtin. M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. Moskva: Iskustvo. 1979.
4. Karimova. M. "Assotsiativ tafakkurning adabiy tahlildagi roli". Til va adabiyot ta'limi, №4. 2021.
5. Goleman. D. Emotsional intellekt. Nyu-York: Bantam Books. 2005.
6. Qo'chqorova. D. "Integrativ yondashuv asosida badiiy matn o'qitish metodikasi". Pedagogik innovatsiyalar jurnali, №6. 2022.
7. Raximova Z. Adabiy ta'lim metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya. 2019.
8. To'xtaeva. S. "Badiiy idrok va axloqiy tafakkur uyg'unligi". Ma'naviyat va ta'lim, №3. 2020.
9. Nussbaum. M. Cultivating Humanity. Harvard University Press. 1997.
10. Qodiriy. A. O'tkan kunlar. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2014.
11. A'zam. E. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 2018.
12. Xolmurodova. N. "Badiiy idrok va shaxsning ma'naviy shakllanishi". O'zbekiston pedagogika jurnali, №2. 2023.